

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYAT XALQ
TA'LIMI BOSHQARMASI**

**NAMANGAN VILOYAT PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**Ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrası
HUQUQ FANI BO'YICHA VAZIYATLI MASALALAR**

METODIK TAVSIYA



Namangan – 2014

Ushbu metodik tavsiyadagi ma'lumotlardan umum o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari uchun huquq fani bo'yicha bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirish va bilimlar bellashuvi, fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rishlarida tavsiya qilamiz.

Metodik tavsiya umumiy o'rta ta'lim maktablari huquqshunoslik fani o'qituvchilari va o'quvchilari hamda davlat va huquq nazariyasi sohasiga qiziquvchilarga foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Tuzuvchi : o'qituvchi M.Umirzaqova

Taqrizchilar: o'qituvchi R.Boymirzayeva

o'qituvchi A.Qoriyev

Mazkur metodik tavsiya Namangan VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma'naviyat asoslari kafedrasining 2014-yil ____dagi yig'ilishida (____-sonli bayonnoma) muhokama qilindi va institut o'quv-uslubiy kengashinig 2014-yil ____dagi ____-sonli qaroriga asosan tasdiqlanib, chop etishga ruxsat berildi.

SO`Z BOSHI

1997 yil 29-avgustda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunar ta'limi tizimi bilan to'la qamrab olishni ta'minlashga, o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim bilan bir qatorda aniq bir kasbni egallab olishlariga qaratilgan. Dasturga asosan yangi tipdagi o'rta o'quv muassasalari tarmog'i shakllandi. Zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi. Yangi ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Dasturdan kelib chiqib ta'lim sohasida islotlar izchil davom etmoqda.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar bir xil bo'lgan emas. Chunonchi, ular jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi hisoblangan – yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashdan kelib chiqqan. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish, yangilash demokratik o'zgarishlar hamda ta'lim sohasini isloh qilishga e'tibor qaratildi.

Bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlod halqaro talablarga javob beraoladigan etuk mutaxassislar bo'lib etishi, ularning bilim va ko'nikmalarida bo'shliqlarning bo'lmasligi uchun ustozlar oldida katta ma'suliyatli vazifalar qo'yilgan.

Huquq fani ijtimoiy fanlar orasida davr talablaridan kelib chiqib, ko'plab ma'lumotlarni qamrab olishi bilan birga, ma'lumotlar o'zgarib, yangilanib boradi. Bu tabiiy hol albatta. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 8- sinflarda “Davlat va huquq asoslari” va 9- sinflarda “Konstitutsiyaviy huquq” fanlari o'rganiladi. Ushbu fanlarni o'rganayotgan o'quvchilarning qaysi mavzu yoki masala bo'yicha bilimlarida bo'shliqlar bo'lishi mumkin? Bu savol bo'yicha olib borilgan ayrim maktablardagi o'rganish natijalari va fan o'qituvchilarining tavsiyalaridan kelib chiqib, ayrim mavzular bo'yicha to'ldiruvchi va batafsil metodik ma'lumotlar tayyorlashga harakat qilindi. Umid qilamiz-ki, bu ma'lumotlardan unumli foydalanadilar hamda bo'shliqlarni to'ldirishda yordam beradi.

1-vaziyat

Do'stining uyidan qaytayotgan 15 yoshli Anvar yo'lakning ikkinchi qavatida spirtli ichimlik iste'mol qilgan, mast xolatdagi noma'lum shaxsga duch keldi.

Mast kishi undan suv so'rab yo'lini to'sadi. Bunga javoban Anvar uni tinch qo'yishini so'raydi va mushti bilan uning yuziga uradi. Noma'lum shaxs uning zarbasidan muvozanatni yo'qotib, zinadan pastga yiqildi va miyasi chayqalib, umurtqa pog'onasi sinishi natijasida falaj bo'lib qoldi. Anvarning o'zi ushbu xolat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organga xabar berdi.

Huquqbuzarlik bu huquq sub'ektining (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki extiyotsizlik vaziyatida egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Huquqbuzarlikning belgilari:

1) ijtimoiy havflilik - qonun xujjatlari bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish (vaziyatda A.ning qilmishi natijasida boshqa shaxsning sog'ligiga og'ir shikast yetishi);

2) huquqqa zidlik - huquq normalariga zid harakat yoki xarakatsizlik (vaziyatda A ning harakati O'zbekiston Respublikasi Koistitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va shaxs sog'ligini muxofaza qiluvchi boshqa qonun normalari buzilishi);

3) huquqbuzarlikning faqat kishilar tomonidan sodir etilishi - huquqbuzarlik sodir etgani uchun faqat kishilar **javobgar** bo'lishi (xayvonlar yoki qurilmalar emas) (vaziyatda 15 yoshli A);

4) ayblilik - ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruxiy munosabati, aybi (vaziyatda egri qasd);

5) jazoga sazovorlik - qilmishida jinoyat tarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topish.

Vaziyatda huquqbuzarlik turi - jinoyat. Jinoyat - JK bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy havfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash taxdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Ijtimoiy havfli qilmish - JK bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar real xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik (JKning 14-modda)

Ushbu vaziyat JK 104-moddasi birinchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyat ob'ekti deganda, JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat yoki ijtimoiy munosabatlarning yig'indisi tushuniladi.

Mazkur vaziyatda jinoyat ob'ektini quyidagicha tasnif lashimiz mumkin:

Umumiy ob'ekt - JKning 2-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlarning bo'lib, ushbu vaziyatning umumiy ob'ekti JKning 2-moddasida qayd etilgan ijtimoiy munosabatdir.

Maxsus ob'ekt deganda, bir guruh ijtimoiy munosabatlarining JKda bir bulimga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatning maxsus ob'ekti shaxsning hayoti va daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatlardir.

Turdosh ob'ekt deganda, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni JKda bir bobga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda jinoyatning turdosh ob'ekti noma'lum shaxsning sog'ligiga oid ijtimoiy munosabatda ifodalanadi.

Bevosita ob'ekt deganda, sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmish tufayli to'g'ridan to'g'ri zarar ko'radigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Ushbu vaziyatning bevosita ob'ekti noma'lum shaxsning sog'ligiga, sog'ligining daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatdir.

Ushbu vaziyatda fakultativ va qo'shimcha ob'ektlar mavjud emas.

Jinoyat predmeti - bu ijtimoiy havfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan yoki shundayin zarar ko'rish real xavfi ostiga qo'yiladigan moddiy dunyo ne'mati. Ushbu vaziyatda jinoyat predmeti mavjud emas. Umuman olganda, shaxs jinoyat predmeti bo'la olmaydi. Chunki, jinoyat predmeti deganda, asosan inson mexnati bilan yaratilgan moddiy dunyo ne'matlari jonsiz buyum (ayrim xollarda xayvon va o'simliklar) tushuniladi, inson esa, bunday

xususiyatga ega emas, u ongli biologik mavjudotdir. Inson huquqbuzarlik sodir etilganda, jabrlanuvchi deb nomlanadi.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi xolatlar yig'indisi tushuniladi.

Uning **zaruriy** (qilmish, oqibat, sababiy bog'lanish) va **fakultativ** (jinoyat sodir etish usuli, vaqti, joyi, vositasi, quroli va b.) **belgilari mavjud**.

Ushbu vaziyatda jinoyatning ob'ektiv tomoni nomalum shaxsning sog'liriga og'ir shikast yetkazilganda va uning natijasida sog'likka og'ir shikast yetishi tarzidagi oqibat kelib chiqishida ifodalanadi.

Jinoyatlar ob'ektiv tomoniga ko'ra, moddiy tarkibli, kesik va formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi.

Formal va kesik tarkibli jinoyatlar ob'ektiv tomoni zaruriy belgisi ijtimoiy havfli qilmishdir. Kesik tarkibli jinoyatlarda huquqni qo'llovchi sub'ekt bir bosqich ortga qaytadi. (masalan, JKning 164-moddasi).

Ushbu vaziyat moddiy tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi. Moddiy tarkibli jinoyatlarning **ob'ektiv tomoni zaruriy belgisi** ijtimoiy havfli qilmish (A.ning JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazishga qaratilgan faol xatti-harakati), ijtimoiy havfli oqibat (noma'lum shaxsning falaj bo'lib qolishi) va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi va noma'lum shaxsning falaj bo'lib qolishi o'rtasidagi sababiy bog'lanish, ya'ni sog'likka og'ir shikast yetishi tarzidagi oqibatning A.ning harakatlari natijasida kelib chiqishi).

JKning 104-moddasiga ko'ra, sodir etilayotgan paytda hayot uchun havfli bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish deganda, badanga shikast yetkazish natijasida ko'rish, so'zlash, eshitish qobiliyatini yo'qotish yoxud biron a'zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo'qolishiga, ruxiy kasallikka chalinishga yoki umuman sog'ligi buzilib, umumiy mexnat qobi-niyatining o'ttiz uch foizidan kam bo'lmagan qismining doimiy yo'qolishiga yoki xomilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo'lishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 27 iyundagi 6-sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qararorida qayd etilishicha, badanga shikast yetkazish deganda, inson organlari yoki organizmi to'qimalari anatomik to'kisligi yoki ular fiziologik funktsiyasining tashqi ta'sir oqibatida buzilishi tushunilmog'i lozim. Badanga yetkazilgan shikastning xususiyati va og'irlik darajasini aniqlash, odatda, tibbiyot organlari vakolatiga taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi sog'likni saqlash vazirining 1992 yil 21 oktyabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan badanga yetkazilgan shikast og'irligini sud-tibbiy yo'sinda belgilash qoidalariga muvofiq o'tkaziladi. Shu sababli, badangi shikast yetkazilgan xar bir xolda JPKning 173-moddasi birinchi qismining 1-bandi talabiga ko'ra, sud-tibbiy ekspertizasining tayinlanishi va o'tkazilishi shart bo'lib, uning xulosasi sud tomonidan qayd etilgan qoidalar va ishning boshqa materiallari asosida (JPKning 187-moddasi) baxolanishi lozim.

Jinoyat ob'ektiv tomonining **fakultativ beligisiga** jinoyat sodir etilgan joy (ikkinchi qavat zinasida), **vaqt** (vaziyatda A. do'stining uyidan qaytgan vaqt), **usul** (A.ning jinoyat sodir etishda qo'llagan usuli - musht tushirirshi), **qurol** (vaziyatda qurol mavjud emas) va vosita (vaziyatda vosita xam yo'q) lar kiradi.

Yuqoridagi Plenum qarorida qayd etilganidek, badanga shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun ayb shakli, badanga shikast yetkazish motivi, maqsadi va usuli, aybdorning qilmishi bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi, shuningdek, ishning turi xal etilishi va aybdorga adolatli jazo belgilanishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa xolatlar batafsil aniqlanishi lozim.

Jinoyat sub'ekti deb, qonundiy belgilangan yoshga yetgan aqli raso (JKning 18-moddasi) jismoniy shaxsga aytiladi.

Jinoyat sub'ektining yosh mezoniga ko'ra to'rtta guruhga ajratamiz: 13, 14, 16 va 18 yosh (JKning 17-moddasi). JKning 104-moddasi uchun JKning 17-moddasida 14 yosh belgilangan. Ya'ni vaziyatda ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan 15 yoshli A. qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi)

jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan sub'ekt bo'ladi va jinoyat sub'ekti hisoblanadi.

Jinoyat huquqida **maxsus sub'ekt** tushunchasi bor. Maxsus sub'ekt deganda, jinoyat sub'ekti bo'lish uchun talab etiladigan zaruriy belgilardan tashqari, ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, jismoniy shaxs bo'lishligidan tashqari shaxsning qo'shimcha belgilarga mansabdor shaxs bo'lishi, retsidivist bo'lishi, xarbiy xizmatchi bo'lishi va boshqa belgilarga ega bo'lishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda **maxsus sub'ekt belgilari mavjud emas**.

Jinoyatning **sub'ektiv tomoni deganda**, sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmishning ichki xolatlarini tavsiflovchi xolatlar tushunilib, ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruxiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Jinoyatning **sub'ektiv tomoni zaruriy belgisi** – aybdir, ehtiyotsizlik, qasd, (JKning 21-22-moddalari); fakultativ belgilari - motiv va maqsaddir. Aybning tafakkuriy (anglash) va irodaviy (istash) belgilari mavshjud. Ushbu vaziyatda jinoyat sub'ektiv tomondan egri qasddan sodir etilgan.

Egri qasd - ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan shaxs qilmishining ijtimoiy havfli xususiyatlarini anglagan, uming havfli oqibatida ko'zi yetgan va ular yuz berishiga ongli rlvishda yo'l qo'ygan bo'lsa bunday qasd egri qasd deb topiladi. (JKning 21-moddasi)

Jinoyat sub'ektiv tomoni fakultativ belgisi motiv va maqsaddir.

Motiv - jinoyat sodir etishga undovchi ichki tuyg'u

Maqsad - jinoyat sodir etishga qaratilgan fikriy intilish.

Quyida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni farqlab o'tsak. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun xujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, tabiiy muxitga zarar yetkazuvchi aybli (qasddan yoki extiyotsizlikdan) sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. MJTKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun basharti, bu huquqbuzarlik xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi (MJtKning 10-moddasi).

Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib o'tish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra, jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik tug'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda yana bir xolatga e'tibor berish lozimki, ayrim xollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba sodir etganlik uchun xam ma'muriy javobgarlikka tortilishi JKning Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109, 127, 130, 132, 139, 140, 143, 148, 156, 177, 182, 183, 184, 184¹, 185¹, 185², 186¹, 186³, 188, 189, 190, 216¹, 216², 217, 224, 225, 226, 229¹, 229², 232, 244¹, 244³, 278-moddalarida birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

ikkinchidan, tajovuz qilish ob'ektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ob'ektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muxitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muxitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Ob'ektiga ko'ra farqlar shundaki, jinoyatning umumiy ob'ekti boshqa huquqbuzarlikning ob'ektiga nisbatan kengrok, bo'lib, bunga davlatning xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'ligi va xokazolar bo'lib, faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarni qamrab oladi;

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoiy qilmish, o'zlarining ijtimoiy havflilik darajasi bilan xam farq qiladi. Bu farqning chegarasi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy

havfliligi bilan belgilanadi. ya'ni, jinoyatning ijtimoiy havflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi.

Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuxmat qilganlik uchun eng kam oylik ish xaqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, JK 139-modasining birinchi qismida tuxmat qilganlik uchun eng kam oylik ish xaqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan;

turtinchidan, jazo miqdori va muddati xam jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi;

beshinchidan, javobgarlikka tortish sub'ektlariga ko'ra. qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga asoslangan xolda faqat sud xal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik tug'risidagi qonunga asoslangan xolda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar xal qiladi;

oltinchidan, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muxim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli xam jinoiy qilmishning ijtimoiy havflilik darajasini belgilovchi muxim mezondir. Qilmishning ijtimoiy havflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi xam muxim ahamiyatga ega. Voyaga yetmaganlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Ushbu qoida 2010 yil 29 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi tug'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilab qo'yilib, shuningdek, Oila kodeksining 71, Fukarolik kodeksining 27, 29, Jinoyat kodeksining 81-moddalari mazmunidan anglashiladi. Vaziyatda 15 yoshli A. voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya huquqida alohida yengillashtiruvchi tartib qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari xaqidagi ishlarni yuritish JPKning 13-bo'limidagi alohida toifadagi ishlar bo'limida alohida -bob sifatida kiritilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo'yicha isbotlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. JPKning 85-moddasiga binoan, isbot qilish ishni qonuniy asosli, adolatli xal qilishda axamiyatga molik bo'lgan masalalar yuzasidan xaqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, to'plash va baxolashdan iborat.

JPKning 86-moddasiga muvofiq isbot qilish sub'ektlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud buladi.

Isbot qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ximoyachi, qonuniy vakil, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar jamoat ximoyachisi ishtirok etishi mumkin. Isbot qilishga, shuningdek, guvoxlar, ekspertlar, tarjimon, xolislar va boshqa fuqarolar jalb qilinishlari mumkin. Ular JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshiradilar va majburiyatlarni bajaradilar. Dalillar JPKning 87-moddasiga muvofiq to'planadi.

Ishni qonuniy ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeta) isbotlanishi lozim (JPKning 82-moddasi):

1)jinoyat ob'ekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi xolatlar (shikast darajasi, xususiyati, mast xolatdagi jabr lanuvchining shaxsini tavsiflovchi xolatlar);

2)jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va JKda ko'rsatilgan boshqa xolatlar; ijtimoiy havfli qilmish, ijtimoiy havfli oqibat va ular urtasidagi sababiy boglanish (A.ning qilmishi, jinoiy oqibat va ular urtasidagi sababiy boglanish, qilmish ob'ektiv tomonining fakultativ belgilari)

3)jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi (vaziyatda 15 yoshli A. tomonidan)

4)jinoyatning qasddan yoki extiyotsizlikdan yoxud o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilganligi (vaziyatda

egri kasddan); sabab va maqsadlar;

5)gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi xolatlar (15 yoshli A.ning shaxsiga oid xolatlar, voyaga yetmaganligi, ish, o'qish, yashashiga oid xolatlar)

Isbot qilish doirasi dalillarni to'plash, tekshirish, baxolashda xaqiqatni aniqlash maqsadida axamiyatga molik bo'lgan masalalarni qonuniy, adolatli, asosli xal qilishdir.

Voyaga yetmaganlar ishlarida quyidagilar xam isbotlanishi lozim:

1)voyaga yetmaganning aniq yoshi (tug'ilgan yili, oyi, kuni) ("Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari xaqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'grisida", 15.09.2000 y.);

2)voyaga yetmaganning shaxsini va salomatligini tavsiflovchi xolatlar;

3)voyaga yetmaganning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshdagi dalolatchi va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganni suroq qilish xam o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voyaga yetmaganni suroq qilish JPKning 96-111-moddalariga asosan va 553-moddasiga binoan suroq qilinadi.

JPKning 51 va 553-moddalariga ko'ra, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ximoyachi ishtirokida suroq, qilinadi. Tergovchining ruxsati bilan ularning ishida qonuniy vakil xam ishtirok etishi mumkin. Qonuniy vakil va ximoyachi suroq vaqtida voyaga yetmaganga savollar berishga xaqli. So'roq oxirida qonuniy vakil va ximoyachi so'roq bayonnomasi bilan tanishib chiqishi va u xaqida o'z muloxazalarini bildirishga xaqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va aiqlanuvchini so'roq qilish dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan 1 soatdan tashqari 6 soat-dan oshmasligi kerak (Umumiy asoslarda JPKning 107-moddasiga binoan 8 soatdan oshmasligi kerak):

JPKning 554-moddasiga binoan voyaga yetmaganni so'roq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog xam ishtirok etishi mumkin. *IR* Jinoyat ishi ko'zgatilganda surishtiruv organlari

tomonidan 10 sutkada tugatilib (JPKning 341-moddasi), tergovchiga yuboriladi. Tergovchi tomonida jinoyat ishi 3 oy muddat mobaynida (JPKning 351-moddasiga muvofiq uzaytirilishi mumkin) tugatilib prokurorga yuboriladi.

Prokuror JPKning 385-moddasiga muvofiq 5 sutka ichida ishni qayta tergovga yuborish yoki sudga yuborish xaqida qaror qabul qiladi. Sud JPKning 395-moddasiga asosan ishni qayta tergovga yuborish yoki sud muxokamasiga tayyorlash uchun qaror (ajrim) qabul qiladi. •

■ Voyaga yetmaganlar ishlari ko'rilayotganda huquqni qo'llovchi sub'ekt 2004 yil 22 iyundagi "Voyaga yetmaganlar xaqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokurorlik nazorati to'grisida"gi Bosh prokuror buyrugining 13; 13,1; 13,2; 13,3; 13,4; bandlariga qat'iy rioya etish lozimligi bilan birga halqaro xujjatlardan, 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'grisidagi halqaro konventsia, 1985 yil 10 dekabrda "Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning minimal standartlari" (Pekin koidalari)ga, "Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha dasturiy printsiplar" (Ar-Riyod dasturiy printsiplari) qoidalariga rioya etishi lozim.

2-Vaziyat.

15 yoshli Akram ismli shaxs qo'shnisi Davronning turar joyiga kirib televizorni olib chiqib ketayotgan vaqtda Davron tomonidan ushlandi.

Huquqbuzarlik bu huquq sub'ektining (vaziyatda Akramning), huquqqa zid, aybli (qasddan yoki **extiyotsizlikdan**, vaziyatda egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Huquqbuzarlikning belgilari:

- 1) ijtimoiy havflilik - qonun xujjatlari bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish (vaziyatda A.ning qilmishi natijasida boshqa shaxsning sog'ligiga og'ir shikast).
- 2) huquqqa zidlik - huquq normalariga zid harakat yoki harakatsizlik (vaziyatda A.ning harakati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,

Jinoyat kodeksi va iqtisodiyot soxasidagi ijtimoiy munosabatlarni himoya qiluvchi boshqa qonun normalari buzilishi);

3) huquqbuzarlikning faqat kishilar tomonidan sodir etilishi - huquqbuzarlik sodir ztgani uchun faqat kishilar javobgar bo'lishi (xayvonlar yoki qurilmalar emas) (vaziyatda 15 yoshli A);

4) ayblilik - ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruxiy munosabati, aybi (vaziyatda egri qasd);

5) jazoga sazovorlik - qilmishida jinoyat tarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topish.

Vaziyatda huquqbuzarlik turi - jinoyat. Jinoyat - JK bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy havfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash taxdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Ijtimoiy havfli qilmish - JK bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar real xavfini keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizlik (JKning 14-moddasi).

Ushbu vaziyat JKning 25-moddasi, 169-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatning ob'ekti deganda, JK bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabat yoki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi tushuniladi.

Mazkur vaziyatda jinoyatning ob'ektini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Umumiy ob'ekt - JKning 2-moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ushbu vaziyatning umumiy ob'ekti JKning 2-moddasida qayd etilgan ijtimoiy munosabatdir.

Maxsus ob'ekt deganda, bir guruh ijtimoiy munosabatlarining JKda bir bo'limga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatning maxsus ob'ekti iqtisodiyot soxasidagi ijtimoiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Turdosh ob'ekt deganda, bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni JKda bir bobga birlashishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda jinoyatning turdosh ob'ekti o'zgarar mulki muxofazasiga oid ijtimoiy munosabatda ifodalanadi.

Bevosita ob'ekt deganda, sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmish tufayli to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'radigan ijtimoiy munosabat tushuniladi. Ushbu vaziyatning bevosita ob'ekti D.ning televizorga egalik qilishiga bo'lgan mulkiy munosabatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotining negizini turli shakldagi mulk tashkil etadi. Mulk mutlaq daxlsiz hisoblanadi va davlat tomonidan qo'riqlanadi, unga nisbatan xar qanday tajovuz qonunga zid deb topiladi.

Jinoyat predmeti - sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmish tufayli zarar ko'radigan yoki zarar ko'rishning real xavfi ostida qoladigan moddiy dunyo ne'matidir. Mazkur vaziyatda jinoyat predmeti - televizor.

Ushbu vaziyatning **fakultativ ob'ekti** D.ning turar joyi daxlsizligiga oid ijtimoiy munosabatdir. Chunki vaziyatda huquqbuzar D.ning turar joyiga qonunga zid tarzda kiradi va shu tariqa jabrlanuvchining turar joy daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy huquqni (Konstitutsiyaning 27-moddasi) buzadi.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni deganda, sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmishning tashqi tomonini tavsiflovchi xolatlar yig'indisi tushuniladi. Talon-taroj jinoyatlari bir-biridan ob'ektiv tomoni fakultativ belgisi - sodir etilish usuliga qarab farqlanadi.

Ushbu vaziyatda jinoyatning ob'ektiv tomoni o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilishda ifodalanadi.

Jinoyatlar ob'ektiv tomoniga ko'ra, moddiy tarkibli, kesik va formal tarkibli jinoyatlarga bo'linadi.

Formal va kesik tarkibli jinoyatlar ob'ektiv tomonining zaruriy belgisi ijtimoiy havfli qilmishdir. Kesik tarkibli jinoyatlarda huquqni qo'llovchi sub'ekt bir bosqich ortga qaytadi (masalan, JKnyng 164-moddasi - bosqinchilik, 242-moddasi - jinoiy uyushma tashkil etish va b.).

Ushbu vaziyat moddiy tarkibli jinoyatlarga misol bo'ladi. **Moddiy tarkibli jinoyatlarning ob'ektiv tomonining zaruriy belgisi** ijtimoiy havfli qilmish

(A.ning JK bilan qo`riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadigan harakati), ijtimoiy havfli oqibat (D.ning mulkiga o`g`irlikka suiqasd qilishi tufayli real zarar ko`rish xavfi ostida qolishi) va ular o`rtasidagi sababiy boglanish (A.ning qilmishi va kelib chiqishi mumkin bo`lgan mulkiy zarar o`rtasidagi sababiy bog`lanish). Moddiy tarkibli jinoyatlarda oqibat kelib chiqmasa, qilmish jinoyatga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

O`g`irlik - O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi "'O`zgalar mulkini o`g`irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toraj qilish jinoyat ishlari bo`yicha sud maliyoti to`g`risida"gi 6-sonli qarorida qayd etilishicha, jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo`qligida yoki ular bor bo`lsada, ularga bildirmasdan uzganing mol-mulkini yashirin talon-toraj qilish o`g`irlik hisoblanadi. Bordi-yu, jabr-lanuvchi yoki boshqalar mol-mulkning olinayotganligini ko`rgan bo`lsa-da, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o`ylagan bo`lsa, bunday qilmishni xam o`g`irlik deb tavsiflash lozim.

O`zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganiga qaramasdan, aybdor tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularning hayoti va sog`ligi uchun havfli bo`lmagan zo`rlik ishlatib yoxud shunday zo`rlik ishlatish bilan ko`rkitib qilingan harakatlar talonchilik deb, xujum qilib hayoti yoki sog`ligi uchun havfli bo`lgan zo`rlik ishlatganda yoxud shunday zo`rlik ishlatish bilan qo`rqitganda esa bosqinchilik deb tavsiflanadi.

Zo`rlik ishlatish harakatlari aybdor tomonidan o`zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishi tugagandan keyin qo`lga tushishdan qutulish maqsadida sodir etilgan bo`lsa, bunday harakat talonchilik yoki bosqinchilik deb qaralmaydi. Zo`rlik ishlatishning xususiyati va kelib chiqqan oqibatlarga qarab qilmishni o`g`irlik deb, boshqa jinoyatlarning belgilari bo`lganda jinoyatlar majmui bo`yicha tavsiflash lozim.

Aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo`lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruxiy jixatdan aqli norasolar,

alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o'g'irlash uzganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish deb tavsiflanishi kerak.

Jinoyat ob'ektiv tomonining fakultativ beligisiga jinoyat sodir etilgan joy (D.ning uyi), vaqt (vaziyatda A. D.ning televizorini o'g'irlashga suiqasd qilgan vaqt), usul (vaziyatda yashirin ravishda), qurol (vaziyatda qurol mavjud emas) va vosita (vaziyatda vosita xam yo'q)lar kiradi. Ayrim xollarda ob'ektiv tomonining fakultativ beligilari xam qilmishni kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinishi mumkin. Jumladan, vaziyatda jinoyat sodir etilgan joy (D.ning uyi) va usul (rayriqonuniy kirish), ya'ni o'g'irlikning qilmishni birovning uy-joyiga g'ayriqonuniy kirib sodir etilishi qilmishni JKning 169-moddasi 2-kismining "uy-joy, yoki boshqa xonaga g'ayriqonuniy kirib sodir etilgan bo'lsa" degan "g" bandi bilan kvalifikatsiya qilinishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi Plenum qarorida ta'kidlanishicha, g'ayriqonuniy kirish deganda o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik qilish maqsadida uy-joyga, omborxona yoki boshqa binoga kirish tushuniladi. G'ayriqonuniy kirish nafaqat yashirin, balki ochiqdan-ochiq, to'siqlarni, odamlarning, shuningdek, qo'riqllovchi xodimlarning qarshiligini yengib sodir etilishi mumkin. Aldash yo'li bilan, shuningdek qalbaki ruxsatnomalardan foydalanib, masalan, santexnika, aloqa bo'limi xodimi, gaz, elektr energiyasi va yong'indan nazorat qiluvchi xodimlar va boshqalar tariqasida binoda paydo bo'lishi g'ayriqonuniy kirish deb baxolanishi kerak.

G'ayriqonuniy kirish birdan-bir maqsad bo'lib qolmasdan, aybdor o'g'irlab ketmokchi bo'lgan boyliklar saqlanayotgan joyga kirib borishning uslubi hisoblanadi. Shu sababli uy-joydan, binodan yoki boshqa omborxonadan o'zganing mulkini talon-taroj qilish niyati g'ayriqonuniy kirishdan oldin yuzaga keladi.

Agar aybdor xonaga boshqa sabablar bilan kirgan bo'lib, moddiy boyliklarni yashirin yoki ochiqdan-ochiq, talon-taroj qilish maqsadi keyin

paydo bo'lsa va bu niyatini u amalga oshirsa, qilmishda talon-torajning tushuntirilayotgan belgisi mavjud bo'lmaydi.

Uy-joy deganda, kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga muljallangan bino (shaxsiy uy, xonadan, mexmonxonadagi, sanatoriyadagi xona, dala xovli, bog' xovli va boshqalar), shuningdek uning tarkibiga kiruvchi, dam olish uchun, mulkni saqlash uchun yoxud insonning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun muljallangan joylar (balkonlar, oynavand ayvonlar, omborlar va boshqalar) tushuniladi.

Jinoyat sub'ekti deb, qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso (JKning 18-modda) jismoniy shaxsga aytiladi. Ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan 15 yoshli A o'g'irlik (JKning 169-moddasi) jinoyati uchun JKning 17-moddasiga muvofiq 14 yoshdan sub'ekt bo'ladi va jinoyat sub'ekti hisoblanadi.

Maxsus sub'ekt deganda, jinoyat sub'ekti bulish uchun talab etiladigan zaruriy belgilardan tashqari, ya'ni qonunda belgilangan yoshga yetganligi, aqli rasoligi, jismoniy shaxs bo'lishligidan tashqari shaxsning qo'shimcha belgilarga mansabdor shaxs bo'lishi, retsidivist bulishi, xarbiy xizmatchi bulishi va boshqa belgilarga ega bulishi tushuniladi. Ushbu vaziyatda maxsus sub'ekt belgilari mavjud emas.

Jinoyatning **sub'ektiv tomoni** deganda, sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmishning ichki xolatlarini tavsiflovchi xolatlar tushunilib, ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruxiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Jinoyat sub'ektiv tomonining zaruriy belgisi – aybdir (extiyotsizlikdan, qasddan) (JKning 21-22-moddalari).

Aybning tafakkuriy (anglash) va irodaviy (istash) belgilari xam mavjud. Ushbu vaziyatda jinoyat sub'ektiv tomondan faqat to'g'ri qasddan sodir etilgani bilan ajralib turadi. To'g'ri qasd -ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy havfli xususiyatlarini anglagan, uning havfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ular yuz berishini istagan bo'lsa, bunday qasd tug'ri qasd deb topiladi (JKning 21-moddasi).

Jinoyat sub'ektiv tomonining fakultativ belgisi motiv va maqsaddir.

Motiv - jinoyat sodir etishga undovchi ichki tuyg'u.

Maqsad - jinoyat sodir etishga qaratilgan fikriy intilish. Ushbu vaziyatda maqsad - ta'magirlik.

Huquqbuzarlik bu huquq sub'ektining (vaziyatda A.ning) huquqqa zid, aybli (qasddan yoki extiyotsizlikdan vaziyatda egri qasddan) yuridik javobgarlikni keltirib chiqaruvchi harakat yoki harakatsizligi.

Quyida ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni farqlab o'tsak. Ma'muriy huquqbuzarlik deganda, qonun xujjatlariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan shaxsga, uning huquq va erkinliklariga, davlat va jamoat tartibiga, mulkchilikka, tabiiy muxitga zarar yetkazuvchi aybli (qasddan yoki extiyotsizlikdan) sodir etilgan ijtimoiy havfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tushuniladi. MJTKda nazarda tutilgan huquqbuzarlik uchun basharti, bu huquqbuzarlik xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi (MJTK, 10-modda). Ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni o'zaro farqlashning quyidagi mezonlarini ko'rsatib utish lozim:

birinchidan, qo'llash asosiga ko'ra, jinoyat faqatgina Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan, ma'muriy huquqbuzarliklar esa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda yana bir xolatga e'tibor berish lozimki, ayrim xollarda Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyatlarni birinchi marotaba sodir etganlik uchun xam ma'muriy javobgarlikka tortilishi JKning Maxsus qismi moddalari dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'ladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 109, 127, 130, 132, 139, 140, 143, 148, 156, 177, 182, 183, 184, 184¹, 185¹, 185², 186¹, 186³, 188, 189, 190, 216¹, 216², 217, 224, 225, 226, 229¹, 229², 232, 244¹, 244³, 278-moddalarida birinchi qismida ko'zda tutilgan jinoyatlar uchun dastlab huquqbuzar ma'muriy javobgarlikka tortiladi;

ikkinchidan, tajovuz qilish ob'ektlariga ko'ra. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ob'ektlar ko'rsatilgan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muxitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzdan qo'riqlash nazarda tutilsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasida shaxsga, fuqarolarning huquqlariga va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muxitga tajovuz qiluvchi g'ayriqonuniy aybli qilmishlar nazarda tutiladi.

Ob'ektiga kura farqlar shundaki, jinoyatning umumiy ob'ekti boshqa huquqbuzarlikning ob'ektiga nisbatan kengrok bo'lib, bunga davlatning xavfsizligi asoslari, inson hayoti, sog'ligi va xokazolar bo'lib, faqat jinoyat qonunining o'zi bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarni qamrab oladi;

uchinchidan, ma'muriy qilmish bilan jinoiy qilmish, o'zlarining ijtimoiy havflilik darajasi bilan xam farq qiladi. Bu farkning chegarasi O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan belgilab qo'yilgan. Bu farq qilmishning ijtimoiy havfliligi bilan belgilanadi. Ya'ni, jinoyatning ijtimoiy havflilik darajasi ancha yuqori bo'ladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasida tuxmat qilganlik uchun eng kam oylik ish xaqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan bo'lsa, JK 139-modasining birinchi qismida tuxmat qilganlik uchun eng kam oylik ish xaqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatishishlari bilan jazolanish nazarda tutilgan;

turtinchidan, jazo miqdori va muddati xam jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklarni farqlovchi mezon hisoblanadi;

bashinchidan, javobgarlikka tortish sub'ektlariga ko'ra. qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasini jinoyat qonuniga asoslangan xolda faqat sud xal qilsa, ma'muriy huquqbuzarlik deb hisoblash masalasini ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunga asoslangan xolda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar xal qiladi;

oltinchidan, jinoyatning boshqa huquqbuzarlikdan muxim farqi ayb shaklidir. Aynan ayb shakli xam jinoiy qilmishning ijtimoiy havflilik darajasini belgilovchi muxim mezondir. Qilmishning ijtimoiy havflilik darajasini belgilashda qilmishning motivi va maqsadi xam muxim ahamiyatga ega.

Voyaga yetmaganlik tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. Voyaga yetmagan deganda, 18 yoshga tilmagan shaxs tushuniladi. Ushbu qoida 2010 yil 29 sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida belgilab qo'yilib, shuningdek, Oila kodeksining 71, Fukarolik kodeksining 27, 29, Jinoyat kodeksining 81-moddalari mazmunidan anglashiladi. Vaziyatda 15 yoshli A. voyaga yetmagan shaxs hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlik jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya huquqida alohida yengillashtiruvchi tartib qo'ullanilishiga sabab bo'ladi. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari xaqidagi ishlarni yuritish JPKning 13-bo'limidagi alohida toifadagi ishlar bo'limida alohida bob sifatida kiritilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo'yicha isbotlash o'ziga xos xususiyatlarga ega. JPKning 85-moddasiga binoan, isbot qilish ishni qonuniy asosli, adolatli xal qilishda ahamiyatga molik bo'lgan masalalar yuzasidan xaqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tekshirish, to'plash va baxolashdan iborat.

JPKning 86-moddasiga muvofiq isbot qilish sub'ektlari: surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud buladi.

Isbot qilishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, himoyachi, qonuniy vakil, jamoat ayblovchisi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar jamoat himoyachisi ishtirok etishi mumkin.

Isbot qilishga, shuningdek, guvoxlar, ekspertlar, tarjimon, xolislar va boshqa fuqarolar jalb qilinishlari mumkin. Ular JPKda nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshiradilar va majburiyatlarni bajaradilar.

Dalillar JPKning 87-moddasiga muvofiq tuplanadi.

Ishni qonuniy ayblov xulosasi bilan sudga yuborish va ayblov hukmi chiqarish uchun quyidagilar (isbot qilish predmeta) isbotlanishi lozim (JPKning 82-moddasi):

1) jinoyat ob'ekti, jinoyat tufayli yetkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi xolatlar (shikoyat darajasi, xususiyati, mast xolatdagi jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi xolatlar);

2) jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va JKda ko'rsatilgan boshqa xolatlar; ijtimoiy havfli qilmish, ijtimoiy havfli oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish (A.ning qilmishi, jinoiy oqibat va ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish, qilmish ob'ektiv tomonining fakultativ belgilari);

3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi (vaziyatda 15 yoshli A. tomonidan);

4) jinoyatning qasddan yoki extiyotsizlikdan yoxud o'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik oqibatida sodir etilganligi (vaziyatda egri kaeddan); sabab va maqsadlar;

5) gumon qilinuvchi, ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi xolatlar (15 yoshli A.ning shaxsiga oid xolatlar, voyaga yetmaganligi, ish, o'qish, yashashiga oid xolatlar)

Isbot qilish doirasi dalillarni to'plash, tekshirish, baxolashda xaqiqatni aniqlash maqsadida axamiyatga molik bo'lgan masalalarni qonuniy, adolatli, asosli xal qilishdir.

Voyaga yetmaganlar ishlarida quyidagilar xam isbotlanishi lozim:

1) voyaga yetmaganning aniq yoshi (turilgan yili, oyi, kuni) ("Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari xaqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti tugrisida", 15.09.2000 y.);

2) voyaga yetmaganning shaxsini va salomatligini tavsiflovchi xolatlar;

3) voyaga yetmaganning turmush va tarbiyalanish sharoitlari;

4) katta yoshdagi dalolatchi va boshqa ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi.

Voyaga yetmaganni so'roq qilish xam o'ziga xos xususiyatlarga ega. Voyaga yetmaganni so'roq qilish JPKning 96-111-moddalariga asosan va 553-moddasiga binoan so'roq qilinadi.

JPKning 51 va 553-moddalariga kura, voyaga yetmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi ishtirokida suroq qilinadi. Tergovchining ruxsati bilan ularning ishida qonuniy vakil xam ishtirok etishi mumkin. Qonuniy vakil va himoyachi suroq vaqtida voyaga yetmaganga savollar berishga xaqli. So'roq oxirida qonuniy vakil va ximoyachi so'roq bayonnomasi bilan tanishib chiqishi va u xaqida o'z muloxazalarini bildirishga xaqli. Voyaga yetmagan gumon qilinuvchini va aiblanuvchini suroq qilish dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan 1 soatdan tashqari 6 soatda oshmasligi kerak (Umumiy asoslarda JPKning 107-moddasiga binoan 8 soatdan oshmasligi kerak).

JPKning 554-moddasiga binoan voyaga yetmaganni suroq qilishda tergovchi yoki prokurorning ixtiyoriga ko'ra pedagog yoki psixolog xam ishtirok etishi mumkin.

Jinoyat ishi kozgatilganda surishtiruv organlari tomonidan 10 sutkada tugatilib (JPKning 341-moddasi), tergovchiga yuboriladi. Tergovchi tomonidan jinoyat ishi 3 oy muddat mobaynida (JPKning 351-moddasiga muvofiq uzaytirilishi mumkin) tugatilib prokurorga yuboriladi. Prokuror JPKning 385-moddasiga muvofiq 5 sutka ichida ishni qayta tergovga yuborish yoki sudga yuborish xaqida qaror qabul qiladi. Sud JPKning 395-moddasiga asosan ishni qayta tergovga yuborish yoki sud muxokamasiga tayyorlash uchun qaror (ajrim) qabul qiladi.

Vaziyatda JKning 104-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan jinoyat uncha og'ir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar ishlari ko'rilayotganda huquqni qo'llovchi sub'ekt 2004 yil 22 iyundagi "Voyaga yetmaganlar xaqidagi qonunlar ijrosi ustidan prokurorlik nazorati tugrisida"gi Bosh prokuror buyrug'ining 13; 13,1; 13,2; 13,3; 13,4; bandlariga qat'iy rioya etish lozimligi bilan birga halqaro xujjatlardan, 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi halqaro konventsia, 1985 yil 10 dekabrda

"Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning minimal standartlari" (Pekin qoidalariga), "Voyaga yetmaganlar orasida xuquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha dasturiy printsiplar" (Ar-Riyod dasturiy printsiplari) qoidalariga rioya etishi lozim.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1-masala. 14 yoshli Shuxrat magazindan velosiped xarid qildi. Shuxratning otasi pullarni qaytarishni va velosipedni qabul qilib olishni talab qildi. Ushbu talab asoslimi?

2-masala. 14 yoshli o'quvchilar Rashid, Malik, shuningdek 17 yoshli Timur va 18 yoshga to'lgan Rustam xovlida futbol o'ynayotganlarida non tayorlash zavodining oynasini sindirishdi. Oynakning siniqlari tayyor xamirga tushib qolganligi bois zavod zarar ko'rdi. Natijada zavod bolalar va ularning ota-onalariga nisbatan da'vo arizasini keltirdilar. Bu xolatda javobgarlik masalasi qanday bo'ladi?

3-masala. 17 yoshli Farxod kollejini tamomlab (lampa) zavodiga ishga kirdi. Unga nisbatan 36 soat ish vaqti belgilandi. Farxod esa xaftasiga 24 soat ish vaqti tayinlanishini talab qildi. Farxodni talabi asoslimi?

4.masala. FXDYo tomonidan 20 yoshli Olim va 17 yoshli Zamiraning nikoxi qayd etildi. Zamiraning ota-onalari nikoxni qonuniniy emas deb topish haqida sudga da'vo arizasi bilan murojaat etdilar. Da'vo asoslimi?

5.masala. Nikoxni qayd etish vaqtida bulg'usi er-xotinlar o'rtasida tortishuv yuzaga keldi. Bulg'usi er ayolidan uning familiyasini qabul qilishini talab qildi. Ayol esa buni rad etdi. FXDYo xodimasi esa ayolga urning familiyasi o'tishi kerakligini aytdi. Bu xolat qonunga asosan qanday xal etilishi lozim?

6.masala. Fuqaro R. Turdiev farzandlarini tarbiyalash va ularni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlardi. Buning uchun u jinoiy javobgarlikka tortilgan edi. Qarilik chog'ida esa u sud orqali u farzandlaridan unga nisbatan aliment undirib berishlari to'g'risida murojaat etgan. Sud bunday murojaatni rad etishi mumkinmi?

7-masala. 9-chi sinf o'quvchilaridan bir nechtasi darsga kech qolayotib svetoforming qizil chirog'ida yo'lining u betiga yugurib o'tishdi. Ularning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik xolatlari bormi?

8-masala. 16 yoshli Raim avtobusga chiqib tushayotgan yo'lovchilarga chiqib tushish uchun xalaqit berayotgan edi. Ota-onasining dakki berishlariga javoban u bulmag'ur so'zlar bilan javob berdi. Buning uchun u javobgar bo'ladimi?

9- masala. Uchta bezori Akmalga tashlanib uni o'ldirish bilan qo'rqitib, oyoqlari bilan tepib kaltak bilan ura boshladilar. O'zini himoya qilayotgan Akmal yerdan toshni olib ulardan birini boshini yorib qo'ydi. Akmalning xatti-harakatlarini jinoyat deb topsa bo'ladimi?

10-masala. Uchta voyaga yetmaganlar kechki paytda parkda sayr qilib yurib, dam oluvchilardan birining qimmatbaxo telpagini yulib qochdilar. Bir ozdan so'ng militsiya xodimlari tomonidan qo'lga olindilar. Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan qanday jinoyat sodir etildi?

11-masala. Bir guruh o'quvchilar ko'lda qayiqda uchishardi. To'satdan ulardan biri suvga yiqilib cho'kib ketdi. Shu qayiqda suzishni yaxshi bilgani xolda o'rtog'iga yordam bermagan Ravshan javobgarlikka tortilishi mumkinmi?

12-masala. 14 yoshli Dilshod darslardan bo'sh vaqtda avtomobillarni yuvish shaxobchasiga ishga kirdi. Ish beruvchi uning ikkinchi oydagi kelishilgan ish haqqini bermadi. Dilshod o'zining maoshini talab qilganda ish beruvchi uning

ishlayotganligini ota-onasiga aytishi va shu bilan birga avvalgi maoshini ham qaytarishga majbur bo'lishini aytadi. Vaziyat qanday hal etilishi lozim?

13-masala. Fuqaro Rustamov A. Lotareyadan televizor yutib oldi. Yutuqni olgandan so'ng televizorning yaroqsizligini ya'ni nosozligini ko'rdi. Uning huquqlari qanday himoya qilinadi?

14-masala. 16 yoshli Shaxnoza yo'lning serqatnov qismidan kesib o'tayotganda qarshisidan kelayotgan avtobusning xaydovchisi uni urib yubormaslik uchun tormozni qattiq bosdi, natijada avtobus ichidagi yo'lovchilardan biri boshini temirga urib o'rtacha tan jarohati oldi. Bu vaziyatda kimni va qanday javobgarlikka tortish mumkin?

15-masala. 16-yoshli Atxam maktabda maktabdoshi Diyor bilan urishib ketdi. Maktab ma'muriyati urishni bartaraf qilib, ularni darsiga qaytarib yubordi. Atxam masalani bu yerda hal qilib bo'lmasligini o'ylab Diyorni uyiga qaytishida yo'lda kutib turdi. Atxam janjal chiqarib Diyorning boshini orqa qismiga uchi qirrali tosh bilan urdi. Natijada Diyor xodisa joyida vafot etdi. Masalani xal eting.

16-masala. 15 yoshli Ali va 16 yoshli Botir poezd kelayotgan vaqtda uning yo'nalishini yo'nalish almashtiruvchi moslama yordamida xali qurib oxiriga yetkazilmagan yo'lga burib yuborishdi. Poezdning kutilmagan to'xtashi natijasida xaydovchi Damirning sog'ligiga o'rtacha og'irlikda shikast yetdi. Xaydovchi Damir bir oy davomida sog'ligini tiklash uchun kasalxonada davolandi. Masalani xal eting.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 yil 29 avgust.
2. Davlat va huquq nazariyasi.- T., TDYuI, 2006 y.3. Z. Islomov Davlat va huquq: umum nazariy masalalar -T.: Adolat, 2000.
4. A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriev. Davlat va huquq asoslari: Darslik. - T.: Sharq, 2002.
5. Z.M. Islamov Teoriya gosudarstva i prava CH 1–2. -T.: Adolat, 1997 –1998.
6. K.T. Xolmuminov Davlat va huquq nazariyasi -T.: Adolat, 2001.
7. A.Saidov, U. Tojixonov Davlat va huquq nazariyasi, 1-2-jild. -T.: Adolat, 2001
8. Yuridik ensiklopediya. -T.: Sharq, 2001.

Elektron resurslar

1. <http://Allpravo.ru>
2. <http://Internet-law.ru>
3. <http://dissertation1.narod.ru/avtoreferats1>
4. <http://www.library.by/data>
5. <http://www.lawportal.ru>
6. <http://www.legislature.ru>
7. <http://www.ziyo> net.
8. <http://www.edu> uz .
9. <http://www>. Lex uz.

